

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

JAHON O'QUV LUG'ATCHILIGI TARIXINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Student of Namangan State University
Sog'inboyeva Shahzoda**

Annotatsiya: Maqolada jahon o'quv lug'atchiligi tarixining shakllanish jarayoni, uning qadimiy manbalari va rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritiladi. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Yunoniston, Rim, Hindiston, Arab va Yevropa mamlakatlarida yaratilgan ilk lug'atlar, ularning maqsadi va ta'limdagi o'rni tahlil qilinadi. O'quv lug'atlarining shakllanishida ta'limiy ehtiyojlar asosiy omil sifatida namoyon bo'lgani, shuningdek, ularning til o'rgatish, tarjima qilish hamda nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqola zamonaviy o'quv lug'atchiligining shakllanishiga asos bo'lgan tarixiy ildizlarni tahliliy yondashuv asosida ochib beradi.

Kalit so'zlar: o'quv lug'atchiligi, leksikografiya tarixi, qadimgi lug'atlar, Yunoniston, Rim, Hindiston, Mesopotamiya, Yevropa leksikografiyasi, glossariy, ideografik lug'at, tarjima lug'ati, ta'limiy lug'at, Y.A.Komenskiy, Amarako'sha, til o'qitish.

THE FORMATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE HISTORY OF WORLD EDUCATIONAL VOCABULARY

*Student of Namangan State University
Sog'inboyeva Shahzoda*

Annotation: The article discusses the process of formation of the history of world educational lexicography, its ancient sources and stages of development. The first dictionaries created in ancient Egypt, Mesopotamia, Greece, Rome, India, Arab and European countries, their purpose and role in education are analyzed. The fact that educational needs were the main factor in the formation of educational dictionaries, as well as their importance in language teaching, translation and the development of speech culture, is highlighted. The article reveals the historical roots that formed the basis for the formation of modern educational lexicography on the basis of an analytical approach.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

Keywords: educational lexicography, history of lexicography, ancient dictionaries, Greece, Rome, India, Mesopotamia, European lexicography, glossary, ideographic dictionary, translation dictionary, educational dictionary, Y.A. Komensky, Amarakosha, language teaching.

Jahon o'quv lug'atchiligi tarixida Fransiya, Italiya, Angliya, Rossiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida keng yoyilgan o'quv lug'atchiligi an'anasining shakllanishi va taraqqiy etish o'choqlari qadimgi Rimdan Vizantiyagacha bo'lgan hududlarga to'g'ri keladi. Aniqroq aytganda, bu ma'naviy yuksalishlar qadimgi sharq madaniyati bilan uyg'unlashgan yunon-lotin lingvistik an'analari qurshovida kechadi. Eng qadimiy lug'at namunalari Misr, Mesopotamiyadan topilgan bo'lib, Aristofan Vizantiyskiy (er.av. III-II) va Dionisiy Frakiyskiy (er.av. II asr) larga tegishlidir. A.Vizantiyskiyning lug'ati antik davr klassiklari asarlaridagi ma'nosi tushunarsiz so'zlar izohiga bag'ishlangan bo'lsa, D.Frakiyskiy lug'ati bevosita maktab o'quvchilariga mo'ljallanadi. ¹Lug'at grammatik lug'at xarakterida bo'lib, so'zlar turkumlarga ajratib chiqiladi. Qaysidir ma'noda bu lug'atni ideografik lug'atning antik ko'rinishi sifatida ham baholash mumkin. Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda qadimgi Mesopotamiyadagi akkad va shumer qabilalari tamoman boshqa-boshqa tilda gaplashishsa-da, bir-biri bilan nihoyatda chatishib ketishgan edi. Ular uchun til o'rganish dolzarb muammoga aylanib, akkad va shumer tillarini o'rgatadigan turli maktab qo'llanmalari yaratish talabini o'rta tashlaydilar. Bu talabni amalga oshirish maqsadida davlatlar, tog' va toshlar, o'simliklar, mevalar, daraxtlar, charm va sopol buyumlar, xudolar, ibodatxona nomlarining qadimiy, sodda ro'yxatlari tuzilib, har ikki tilni o'rganishda yordam beradigan bo'g'in belgilari tushirilgan sillabik yozuvli so'zlashgichlar yuzaga keladi. ²Qadimgi Shumer shahri Nippurdagi ibodatxona kutubxonasidan ilk ibtidoiy maktablarda til o'rganuvchilar uchun tuzilgan bir qancha dastlabki o'quv qo'llanmalari va turli grammatik mashqlar to'plamlari topilgan. Yunonlar rimliklarda ham lug'at qo'llanmalar tuzishga ishtiyoq uyg'otadilar va natijada rimliklar ham lug'atchilikdagi izlanishlarini maktablar uchun xizmat qiluvchi lug'atlar yaratishga qaratadilar. 12 dan 16 yoshgacha bo'lgan rimlik o'spirinlar maktablarda ellinistik ruhda tarbiyalanib, yunon-rim madaniyati, tili va adabiyoti birga o'qitilar edi. Qadimgi rimlik pedagog va

¹ Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.

² П.Н.Денисов. Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии. Изд. МШУ. М., 1974.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

notiqlik san'ati ustasi Kvintilian (I asr) 12 kitobdan iborat «Notiqlarning savodxonligi haqida» deb nomlangan asarida notiqlik san'ati tadqiqi davomida tarjima nazariyasi haqida ham to'xtaladi. Yunon tilidan lotinchaga tarjima qilish misolida o'z tavsiyalarini berar ekan, tarjimani «kundalik o'quv mashqlari» deb nomlaydi.³ Hind lug'atchiligi ham o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, aksariyati antik lug'at namunalari kabi diniy adabiyotlardagi notanish so'zlar izohiga (glossariy) bag'ishlangan edi. Sanskritcha lug'atlar ichida eng mashhuri Amarasingxning (VI-VIII asrlar) «Amarakosha» o'quv-ideografik lug'ati hisoblanadi. Hind lug'atchiligi bilan birga arab, fors lug'atchiligi ham nihoyatda takomillashib, madaniy va ma'naviy yuksalishda katta rol o'ynadi. Kuzatishlardan ilk yaratilgan lug'atlar asosida ta'limiy maqsadlar yotganligi ma'lum bo'ladi. Ularning ba'zilar matndagi ma'nosi notanish so'zlar izohiga bag'ishlangan (glossariy) bo'lsa, ayrimlari boshqa tilni o'rganish, ba'zilar nutq madaniyatini o'stirish, muayyan davlat so'zlashuv tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish uchun xizmat qilgan. Dastlabki tuzilgan lug'atlar tahlili hatto ularning nomlanishi ham o'quv jarayoniga moslangan, ta'limga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Xususan, 1500-yilda yaratilgan birinchi lotincha-inglizcha lug'atning «Bolalar uchun xazina» («Promptulorium parvulorum»), 1487-1507 yillarda yaratilgan frantsuz va lotin tillaridagi birinchi tarjima lug'atlarining «Yoshlar uchun izohnoma» («Seminarium et planetarium fructiferarum»), «Bolalar uchun ixcham lug'at» («Diktionarium puerorum») deb nomlanishi buni isbotlaydi⁴. Lug'atlar tillararo munosabatda muhim o'rin tutib, o'rta asrlarda Yevropada lotin, Yunon, qadimgi slavyan tillari bo'yicha tarjima lug'atlarini yaratish leksikografiyaning asosiy vazifasiga aylangan edi. Yevropa o'quv maskanlarida lotin tili bir necha asrlar mobaynida Y.A.Komenskiyning «Мир чувственных вещей в картинках» (8 ming so'z, birinchi nashri 1658-yilda chiqarilgan) nomli lug'at qo'llanmasi asosida o'qitib kelingan. O'z davrida bu kitob slovar-minimum (kichik lug'at) deb yuritilib, zamonaviy ta'limotda yuksak baholangan. Y.A.Komenskiyning tinimsiz mehnati samarasi o'laroq, mavzuviy rasmlı o'quv lug'atlari seriyasini yaratishga keng yo'l ochiladi. O'quv lug'atlari takomillashuvining ikkinchi bosqichi tarixda «bosib ol va hukmronlik qil» siyosati bilan bevosita aloqador. Lug'atlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi muhim

³ Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.

⁴ Saidova D. va boshq. O'zbek tiliga o'zlashgan forsha o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent, 2015 va boshq.

O'RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR TADQIQOTLAR-Jurnali

1-son. 1-qism. Sentyabr-2025

xizmatini birinchilardan bo'lib payqagan inglizlar undan o'zlari mustamlakaga aylantirgan hududlarda ingliz tilini tez va samarali o'qitish maqsadini amalga oshirishda keng foydalanadi⁵. Shuningdek, rus tilshunosligida o'quv lug'atlarining paydo bo'lishiga ham sobiq imperiya tasarrufidagi millatlarga rus tilini samarali o'rgatish ehtiyoji sabab bo'ladi. Milliy maktablarda rus tilini o'qitish uchun xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy qo'llanmalarni yaratish va ularni tadqiq etish harakatlari XIX asrning oxirlaridan boshlanadi.⁶

Xulosa qilib aytganda, jahon o'quv lug'atchiligi insoniyat tafakkuri va ta'lim tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Qadimgi sivilizatsiyalar davrida yaratilgan lug'atlar asosan o'quv maqsadida tuzilgan bo'lib, ular tildagi notanish so'zlarni izohlash, tarjima qilish, nutqni boyitish kabi vazifalarni bajargan. Keyinchalik Yevropa mamlakatlarida, xususan, Y.A.Komenskiy kabi olimlar tomonidan o'quv lug'atchiligi yangi bosqichga ko'tarilgan. Lug'atlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda, millatlararo aloqa va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda esa o'quv lug'atchiligi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashib, global ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Самойлович А.Н. Персидский турколог XVIII в Мехдихан // Известия общества обследования и изучения Азербайджана. – Баку, 1927.
2. E.D.Polivanov "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at". Toshkent, Moskva, 1926.
3. Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.
4. П.Н.Денисов. Очерки по русской лексикологии и учебной лексикографии. Изд. МШУ. М., 1974.
5. Norxo'jayeva X. O'zbek tilining eskirgan so'zlari o'quv lug'ati. – Qarshi, 2006.
6. Акмалова М. Лексикографические труды в собрании института востоковедения АН УЗ // Адабий мерос, 3 (57), 1991.

⁵ E.D.Polivanov "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at". Toshkent, Moskva, 1926.

⁶ Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка «Мабани ул-луғат» Мира Мухамедхана. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1967.

**O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY VA GUMANITAR
TADQIQOTLAR-Jurnali
1-son. 1-qism. Sentyabr-2025**

7. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Andijon, 2006.
8. Mengliyev B., Bahriddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Shukurov O., Boymatova B. O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
10. To‘rayeva U., Shodmonova D. O‘zbek tilining zid ma‘noli so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
11. Saidova D. va boshq. O‘zbek tiliga o‘zlashgan forsha o‘zlashma so‘zlar o‘quv lug‘ati. – Toshkent, 2015 va boshq.
12. <http://www.nokia.uz/uz/about/pressrel/1518.htm>
13. <http://ru.wikipedia.org/wiki>